



KOMP'YUTER TARMOQLARI VA TARMOQ TEXNOLOGIYALARI

Jabborov Sh.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi

Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi Gijduvon tuman 2-son kasb

hunar maktabi Informatika va AT fani o'qituvchisi

Annotatsiya:

Komp'yuter tarmog'i – aloqa kanallari orqali yagona tizimga bog'langan komp'yuter va terminallar majmuasidir

Kalit so'zi: Internet, tarmog', aloqa kanallar, Axborot, Mintaqaviy, Halqasimon.

Komp'yuter tarmog'i – aloqa kanallari orqali yagona tizimga bog'langan komp'yuter va terminallar majmuasidir. Tarmoqda axborotni ishlab chiqaruvchi va undan foydalanuvchi ob'ektlar tarmoq ob'ektlari deyiladi. Axborotlarning teritorial joylashuviga ko'ra komp'yuter tarmoqlarini uchta asosiy sinfga bo'lish mumkin: global tarmoqlar, regional (mintaqaviy) tarmoqlar, lokal (mahalliy) tarmoqlar. Global komp'yuter tarmoqlari turli mamlakatlarda, turli qit'alarda joylashgan abonentlarni birlashtiradi. Abonentlar orasida aloqa bunday tarmoqlarda telefon aloqa liniyalarida, radioaloqa va kosmik aloqa tizimlari asosida amalga oshiriladi.

Mintaqaviy komp'yuter tarmoqlari bir-biridan ancha uzoqda joylashgan biror mintaqaga tegishli abonentlarni birlashtiradi. Masalan, biror shahar ichidagi yoki iqtisodiy regionda yoki alohida bir mamlakatda joylashgan abonentlarni birlashtiruvchi tarmoq. Lokal (mahalliy) tarmoq kichik bir hududda joylashgan abonentlarni birlashtiradi. Bunday tarmoq odatda aniq bir joyga bog'langan bo'ladi. Masalan, biror korxona yoki tashkilotga. Mahalliy tarmoqning uzunligini 2-3 km bilan cheklash mumkin

Komp'yuterlarni mahalliy tarmoqqa ulashning uch asosiy strukturasi mavjud

- halqasimon;
- shinali;
- yulduzsimon



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th January, 2025

Halqasimon bog‘lanishda komp’yuterlar yopiq chiziq bo‘yicha bog‘langan bo‘ladi. Tarmoqning kirish qismi chiqish qismi bilan ulangan bo‘ladi. Axborot halqa bo‘yicha komp’yuterdan komp’yuterga o‘tadi.

Yulduzsimon bog‘lanishda markaziy komp’yuter mavjud bo‘lib, unga qolgan barcha komp’yuterlar bog‘langan bo‘ladi. Internet – bu yagona standart asosida faoliyat ko‘rsatuvchi jahon global komp’yuter tarmog‘idir. Uning nomi «tarmoqlararo» degan ma’noni anglatadi. U mahalliy (lokal) komp’yuter tarmoqlarni birlashtiruvchi tarmoq xisoblanadi. Internet tarmoqqa kiruvchi barcha komp’yuterlarning o‘zaro ma’lumotlar almashinish imkoniyatini yaratib beradi. Internet xizmati Internet provayderlari yordamida aloqa kanallari orqali amalga oshiriladi. Aloqa kanallari sifatida telefon tarmog‘i, kabelli kanallar, radio va kosmos aloqa tizimlaridan foydalanish mumkin.

Foylanilayotgan adabiyotlar

- 1.M.Aripov,AHaydarov “INFORMATIKA ASOSLARI” TOSHKENT -2009
- 2.WWW. ZIYO NET.
3. WWW.ARXIV.UZ
4. .M.Aripov “Internet va electron asoslari” Toshkent-2000y